

## DIZARTRIYA TURLARI SABABLARI VA UNI BARTARAF ETISH

***Bayjonov Furqat Baxramovich***

*Alfraganus Universiteti*

*Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsent v.b*

***Muslimova Muxlisa Sa'dulla qizi***

*Alfraganus Universiteti 2-kurs talabasi*

*muxlisa6475@gmail.com*

***Annotatsiya:*** Ushbu maqolada dizartriya haqida qisqa va umumiy ma'lumot, dizartriyaning turlari, kelib chiqish sabablari. Dizartriya bo'yicha ish olib borgan olimlar fikrlari va tuzatish, bartaraf etish va klinik – pedagogik usullari haqida so'z boradi.

***Kalit so'zlar.*** artikulyatsiya, anartriya, logopedik massaj, nutq apparati, dori vositalar.

***Аннотация:*** В статье представлены краткие и общие сведения о дизартрии, видах дизартрии, причинах возникновения. Обсуждаются мнения ученых, работавших над дизартрией, а также методы коррекции, элиминации и клинико-педагогических методов.

***Ключевые слова.*** артикуляция, анартрия, логопедический массаж, речевой аппарат, препараты.

***Abstract:*** This article provides brief and general information about dysarthria, its types, causes. It discusses the opinions of scientists who have worked on dysarthria, as well as correction, elimination, and clinical and pedagogical methods.

***Keywords:*** articulation, anarthria, logopedic massage, speech apparatus, medications.

Dizartriya grekcha “diz”- buzilish, “arthron”- biriktirish, ulash degan ma’nosini bildiradi. Nutq apparatining innervatsiyasidagi kamchiliklar tufayli nutqning talaffuz tominidan buzilishi.

Dizartriya bu markaziy harakterdagi organik nutq buzilishi hisoblanadi. Dizartriyada nutq a’zolarining (yumshoq tanglay, til, lablar) kam harakatlanishi natijasida nutq tovushlari artikulyatsiyasi qiyinlashadi, shu bilan birgalikda ovoz, nafas buzilishlari hamda nutqning sur’ati, ritmu va ifodaliligida o’zgarishlar kuzatiladi. Dizartriyaning og’ir formasida nutq butunlay tushunarsiz bo’ladi. Bunday hol “anartriya” deb ataladi. Anartriya termini grekcha so’zdan olingan bo’lib “a”-yo’q, inkor “arthron” - biriktirish degan ma’noni bildiradi. Dizartriyada ovoz past yoki baland, monoton, ba’zan manqalangan, xirillagan bo’ladi. Dizartriyada nutqning leksik-grammatik tomonining buzilishi asosiy buzilish hisoblanmaydi. Bunda nutqning tovush tomondan buzilishi yetakchi o’rin turadi.

Dizartriya masalasiga qiziqish XX asr o’rtasida avj oldi. 1982-yildagina birinchi ilmiy anjuman bo’lib, dizartriya muammolarining klinik jihatlariga bag’ishlandi “Veggu 1983-yil”. Bu anjuman materiallaridan dizartriya muammolariga qiziqish ortgani o’z natijasini berdi. Bu sohada Darley, Aronson va Brown 1969-1975, Aronson 1981-yillari dizartriyaning turli klinik shakllaridagi tovush alomatlari xususiyatlariga qaratildi.

**Dizartriyada ish olib borgan olimlar.** Dizatriyani birinchi bo’lib M.S.Margulis ta’kidlab o’tgan, u dizatriyaning belgilash diagnostikasi odatda nervalagik alomatlarning barcha shart-sharoitlarini inobatga olgan holda ish olib borgan. 1888-yilda Goweris nutqning bunday buzilishini serebral va bulbar shakllarga ajratadi.

Dizatriyaning neyroanatomik tamoyiliga amal qilgan holda eng mukammal tasniflash Peocher tomonidan ishlab chiqilgan va u dizatriyaning quyidagi shakllarga ajratadi;

- po’stloqli;
- po’stloq osti;
- pedenkulyar;

- supranuklear/psevda bulbar/;
- bulbar nuklear;
- serebellyar;
- diensefal;
- mezeensefal;
- miya nervlari shikastlanishi bilan bog'liq periferik dizatriya;
- chuqur sezuvchanlikning buzilishi bilan bog'liq dizatriya;
- miyaning aralashlash shikastlanishlaridagi/toksikoz holatlar/dizartriya;
- epilepsiya paytidagi dizatriya;
- miasteniya paytidagi dizatriya;
- po'stloq osti ekspressiv dizatriya.

Reasegni ta'kidlashicha, bemorlani nutqiga tavsif yozishning hammasi diagnoz uchun foydalaniladi, ammo ular sub'yektiv bo'lib dizatriya muommosini ilmiy asosga qo'yishga halaqit beradi.

Grewel (1957) takidlashicha, birinchi navbatda nutq buzilishini afaziya gapirish buzilishidan, boshqacha aytganda, texnik vazifani bajaruvchi vositani buzilishini ajrata olishni bilishi lozim. Grewel o'zining nutq buzilishi tasnifida dizatriyani so'zlashish harakatidagi boshqa buzilishlaridan ajratib ko'rsata oladi.

Hazard Hugot (1964) dizatriya tushunchasini yanada cheklaydi. Dizatriyaga u artikulyatsiyani buzilishini, yani umumiy buzilish bilan belgilangan piramidali, ekstrapiramidali yoki serebral harakterdagi buzilishlar bilan belgilaydi. Insonda nutq rivojlanishi bilan birga shakllanadigan maxsus nutq matorini buzilishini muallif dizatriya deb atamaydi balki uni anartriya deb ataydi.

**Dizartriyaning kelib chiqish sabablari.** Dizatriya juda ko'p sabab va omillar tufayli kelib chiqadi. Ulardan:

1. Nevrologik kasalliklar: Dizatriyaning asosiy sabablari orasida insult, Parkinson kasalligi, Skleroz va boshqa nevrologik kasalliklar bor. Bu kasalliklar miyaning nutq bilan bog'liq qismlariga ta'sir qiladi.

2. Jarohatlar: Bosh miya jarohatlari, shu jumladan, ochiq jarohatlar va boshdan olingan qon ketishlari dizatriyani keltirib chiqarishi mumkin.

3. Genetik faktorlar: Ayrim irsiy kasalliklar va sindromlar, masalan, Dushenning muskul distrofiyasi, dizartriya rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

4. Infektsiyalar: Meningit va boshqa infeksiyon kasalliklar, nerv tizimiga ta'sir etib, dizartriya olib kelishi mumkin.

5. O'tkir va surunkali kasalliklar: O'tkir respirator infeksiyalar yoki surunkali kasalliklar ham dizartriya holatlarini kuchaytirishi mumkin.

Bolalardagi dizartriya ko'pincha tug'ruq travmasi, gipoksiya yoki asfiksiya, shuningdek, bolalar serebral falaji kabi MATning ona qornidagi shikastlanishi bilan bog'liq. Xavflar, shuningdek, chala tug'ilish va chaqaloq sariqligini o'z ichiga oladi. Onaning toksinlari, infeksiyalari va surunkali kasalliklarining ona qornidagi ta'siri MNT rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkin. Dizartriya yana bosh miya XII juft nervlaridan V uch tarmoqli, VII yuz, IX til halqum, X sayyor, adashgan, XII til osti juft yadrolarining zararlanishi ham kuzatiladi.

Dizartriya formalari bo'yicha quyidagicha tasnif qilinadi:

I. Bulbar dizartriya. Bu uzunchoq miyada joylashgan IX - til halqum, X - sayyor, adashgan, XI - qo'shimcha nerv, XII - til osti juft nervlarining yadrolari va ildizchalarining zararlanishi natijasidir. Bosh miya nervlarining periferik o'qlari, po'stloq yoki yadroning shikastlanishi oqibatida yuzaga keluvchi simptokompleksning harakat buzilishlari bulbar falaj deb ataladi. Bulbar dizartriya falajlanish bir tomonlama bo'ladi, bola nutqda jarangli tovushlarni qo'llay olmaydi. Shuningdek, boshqa ko'pgina tovushlarni buzib talaffuz qilish hollari ham kuzatiladi.

II. Pseudobulbar dizartriya. Dizartriyaning bu formasi olimlar tomonidan eng ko'p o'rganilgan bo'lib, hayotda ko'proq uchrab turadigan nuqson hisoblanadi. Pseudobulbar dizartriya, bolaning ilk yoshlik davrida, tug'ruq vaqtida yoki homilalik davrida turli bosh miya kasalliklari: ensefalit, miya shishlari hamda miya jarohatlari sababli bosh miyaning organik jarohatlanishi natijasidir. Pseudobulbar falajda bolada umumiy va nutqiy motorika buziladi. Bola yomon emadi, entikadi va yomon yutadi. Og'izlaridan doimo so'lak ajralib

turadi, yuz muskullari harakati ham buzilgan bo‘ladi. Bola lunjlarini shishira olmaydi, tillarini harakatga keltirishda qiynaladi. Artikulyatsion harakatlarni juda qiyinchilik bilan bajaradi. Yaqqol namoyon bo‘luvchi kamchiliklardan biri ixtiyoriy harakatlarni bajara olmaslikdir. Bolada nafas olgan jarayoni buzilib ovozlari monoton, manqalangan bo‘ladi. Psevdobulbar dizartriya shartli ravishda 3 darajaga ajratiladi: yengil, o‘rta, og‘ir.

III. Miyachali dizartriya. Bu miyachaning zararlanishi natijasida paydo bòladi. Bunda, nutqning ravonligi, balandligi, sur'ati buzilgan bòladi. Dizartriyaning bu formasi hayotda kam òrganilgan.

IV. Qobiq dizartriyasi. Dizartriyaning bu shaklida artikulyatsion apparat motorikasida ixtiyoriy harakatlar buzilgan bòladi. Bunda ham tovushlar talaffuzida kamchiliklar kuzatiladi. Bolalar bir tovush talaffuzidan ikkinchi tovush talaffuziga òtishda hamda bir artikulyatsion holatdan ikkinchi artikulyatsion holatga òtishga qiynaladilar. Bolalar tovushlarni alohida aniq talaffuz etish qobiliyatiga ega bòladilar, lekin nutqda tovushlarni notògri talqin etadilar. Bunday bolalarda nutqning leksik-grammatik tomoni normada bòladi.

V. Qobiq osti dizartriyasi. Dizartriyaning bu formasi, bosh miya qobiq osti tugunlarining jarohatlanishi natijasida paydo bòladi. Qobiq osti dizartriyasi muskullar tonusining buzilishi va riperkinezlarning bòlishi bilan xarakterlanadi. Muskullar tonusining buzilishi va giperkinezlar ovoz va artikulyatsiya buzilishlariga olib keladi. Qobiq osti dizartriyasining xarakterli belgilari nutqning sur'ati, ritmi va intonatsiyasining buzilishidir.

**Dizartriyani tuzatish.** Dizartrik bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish va tuzatish ishning eng asosiy vazifalaridan biridir. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarining asosiy sababi nutq apparati a'zolarining harakatchanligida kuzatiladigan kamchiliklardir. Shuning uchun logoped asosiy diqqatni artikulyatsion apparat harakatchanligini rivojlantirishga qaratishi lozim. Dizartriyani bartaraf etish bo'yicha olib boriladigan logopedik ta'sir tizimi kompleks ravishda amalga oshiriladi, ya'ni artikulyatsion apparat massaji va gimnastik mashqlari, ovoz va nafas ustida ishlash, umumiy davolash,

jismoniy tarbiya, fizioterapiya va dori-darmonlar bilan davolash ishlari. Asosiy diqqat bolada nutqning rivojlanishi holatiga, nutqning leksik-grammatik tomoniga hamda nutqning aloqa funksiyasi xususiyatlariga qaratiladi. Maktab yoshidagi bolalarda yozma nutq holati ham hisobga olinadi. Uzoq vaqt davomida muntazam ravishda olib borilgan mashg'ulotlar sekin-asta artikulyatsion apparat, apparat motorikasini normallashtiradi, artikulyatsion harakatlarni rivojlantiradi, artikulyatsiya a'zolarida ixtiyoriy harakatlarni bir harakatdan boshqa bir harakatga o'tish qobiliyatini shakllantiradi, hamda fonematik eshituvni to'la qonli ravishda rivojlantirishga yordam beradi. Dizartrik bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning vazifalari quyidagilardan iborat:

1 – tovushlarning to'g'ri talaffuzini o'rgatish, yani artikulyatsion motorikani, nutqiy nafasni rivojlantirish va tovushni nutqga qo'yish va mustahkamlash;

2 - fonematik idrokni rivojlantirish, tovush analiz malakasini shakllantirish;

3 - nutqning ritm, ohangdorligi va ifodaliligi tomonidagi kamchiliklarni bartarf etish;

4 - paydo bo'lgan nutqning umumiy rivojlanmaganligini to'g'irlash.

Dizartrik bolalar bilan artikulyatsion gimnastika, logopedik massajlar ham olib borish zarur. Shuningdek vrach nevropatolog tavsiyasiga ko'ra ba'zi hollarda tashxisga qarab dori vositalar ham ishlatilishi mumkin. Miyaning qon bilan ta'minlanishini yaxshilash (piratsetamlar), V guruh vitaminlari, gipertoniya tinchlantiruvchi vositalar.

**Xulosa:** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bolalarda dizartriya ko'pincha perinatal omillar ta'siridan kelib chiqadi. Dizartriya – nutq apparati inervatsiyasining organik buzilishi sababli nutqning talaffuz tomonidan buzilishidir. Bu nutq nuqsonining murakkab nutq nuqsoni toifasiga kiradi. Bunday nutqiy nuqsonni korreksiyalash uchun uzoq muddat talab etiladi. Bolalarda nutq ko'nikmasini shakllantirish uchun logoped bilan kompleks davolash talab etiladi. To'g'ri terapiya bilan nutq sezilarli darajada yaxshilanishi,

yengil holatlarda to‘liq tiklanish, og‘ir holatlarda ijtimoiylashuv yaxshilanishi mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. M.Ayupova Logopediya Toshkent 2008-yil.
2. L.R.Muminova Logopediya Toshkent. 2018-yil.
4. M.Y. Ayupova, L.R.Muminova, M.Axmedova. Logopediya moduli bo‘yicha Toshkent. 2018-yil.